

QABRISTON FLORASINING AHAMIYATI: CHIRCHIQ SHAHRI HOLATI ASOSIDA TAHLIL

Absamatov T. N.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq shahar

Annotatsiya. Maqolada, O'zbekiston Respublikasi florasini o'rganishda, hozirgi kunda olib borilayotgan floristik tadqiqotlar haqida bayon qilingan. Markaziy Osiyoda birinchi marta qabristonlar florasini o'rganish bo'yicha ishlar boshlanganligi haqidagi ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqolada, Chirchiq shahri qabristonlarining tabiiy florasini va ularning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Flora, kamyob, endem, qabriston florasini, Chirchiq shahri.

Abstract. The article provides information about modern floristic studies of the flora of the Republic of Uzbekistan. For the first time in Central Asia, work began on the study of the flora of cemeteries. This paper provides information about the natural flora of the cemeteries of the city of Chirchik and their significance.

Key words: Flora, rare, endem, cemetery flora, Chirchik city.

Kirish. Shahar ekotizimlari inson tomonidan eng ko'p o'zgartirilgan hududlar sifatida mintaqaviy floraning tasodifiy komponentini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Ularning sinantropizatsiyasi va adventizatsiyasi darajasi umuman o'simlik qoplamining antropogen o'zgarishi darajasining ko'rsatkichidir [4, 8]. Shahar ekotizimlari turli xil yashash joylarini o'z ichiga oladi - butunlay o'zgargan turarjoy, qishloq xo'jaligi va texnogendan tortib, tegishli zonal o'simlik turlariga yaqinligini saqlab qolgan rekreatsion va o'rmon bog'larigacha. Shahar ekotizimlarining floristik xilma-xilligiga turli xil foydali o'simlik turlarini yetishtirish joylari, jumladan, tomorqa yerlari (faol ishlayotgan va tashlab ketilgan), landshaft dizayni elementlari, qabristonlar va boshqalar muhim hissa qo'shadi. Bu yashash joylari tasodifiy va, xususan, invaziv o'simlik turlarini kengaytirish uchun faol maydondir.

Urbanizatsiya – 10-12 asrlarda jamiyat rivojlanishining asosiy tendensiyasidir. Shunday qilib, agar 1900 yilgacha dunyo aholisining qariyb 14 foizi shaharlarda yashagan bo'lsa, 20-asrda 45 foizi va 2025 yilga kelib, bashoratlarga ko'ra, taxminan 60 foizi shaharlarda yashaydi [10].

Qabristonlar har qanday shahar ekotizimining ajralmas qismidir. Ritual hududlarni joylashtirish an'analari dafn etilgan joylarda ko'plab kiritilgan turlarning

mavjudligini aniqlaydi. Qabristonlarga ekilgan o'simliklarda ko'p yillik, tuproq qoplamining turlari ustunlik qiladi, ular atrof-muhit sharoitlariga talabchan bo'lmagan va doimiy parvarishga muhtoj emas [9]. Bu turlar ko'pincha yuqori raqobatbardoshdir, osongina tabbiy floraga o'tib ketadi, qo'shni o'simlik hududiga chiqadi va shu tariqa o'simlik dunyosining manzarali komponentini, ba'zan esa hatto "qora ro'yxatlar" ni to'ldiradi. Qabristonlarning floristik tarkibi bir qator omillar ta'sirida shakllanadi: qabristonning o'zi paydo bo'lgan vaqt; asl senozlar qoldiqlarining mavjudligi va ularning ekologik xususiyatlari; xilma-xilligi, paydo bo'lgan yashash joylarining kichik kontur va vaqt xilma-xilligi va boshqalar.

Chirchiq shahri - Toshkent viloyatidagi shahar. Chirchiqdaryosining o'ng sohilida, Qorjontovning yon bag'rida, 730 m balandlikda joylashgan. Aholisi 170,1 ming kishi (2015 y.).

Chirchiq 1932 yilda daryo bo'yidagi Qirg'iz-quloq, Qipchoq, Niyozbek qishloqlari o'rnida yirik elektrkimyo korxonasi qurilishi munosabati b-n vujudga kelgan. Yangi sanoat korxonalari qurilishi bilan aholi soni ham tez o'sdi (1939 yilda - 15 ming kishi, 1959 y. - 65 ming kishi, 1970 y. - 107,4 ming kishi). 1966-1967 yillarda 2-jahon urushida halok bo'lgan chirchiqliklar xotirasiga o'rnatilgan yodgorlik, madaniyat va istirohat bog'lari, xiyobonlar, mak-tablar, poliklinika, kasalxona va boshqalar bunyod etildi. Shahar yonida aholining dam olish joylari mavjud.

Keyingi o'n yillik davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutida olib borilayotgan tadqiqotlar O'zbekiston florasining yangi nashrini yaratish [11, 12, 13], respublika florasini tizimli tadqiq etish [5, 6, 7, 8, 19, 20], kam o'rganilgan hududlar flora tarkibini aniqlash [8, 19, 20], ma'lumotlar bazasini yaratish [6, 20], mavjud ma'lumotlarni chuqur tahlil etish barobarida yangi ilg'or tadqiqot uslublarini joriy etishga oid tadqiqotlar talaygina [1, 2, 3, 7, 15, 19]. Ular orasida respublika ma'muriy viloyatlari kesimida flora kadastrini yuritishga bag'ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi [14, 16, 17, 18]. Botanika instituti Noyob o'simlik turlari kadastr va monitoring laboratoriyasida hozirda «Kadastr flory Uzbekistana. Tashkentskaya oblast (2020-2022 y.y.)» nomli monografiyasini tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Lekin hozirga qadar qabriston florasida o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy uchun yangi yo'nalish hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida jami 10.457 ta qabristonlar mavjud. Jumladan, Toshkent viloyati Chirchiq shahar "Obodonlashtirish" boshqarmasi tasarrufidagi "Ma'rosimiy xizmat ko'rsatish" bo'limiga tasarrufida 21 ta qabriston mavjud bo'lib ularga, ulardan 8 tasi faoliyat yuritib kelmoqda, qolgan 12 tasi shahar hokimi qarori bilan yopilgan (1-jadval).

Qabristonlar shahar va qishloq ekotizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu hududlar florasi tarkibining shakllanishi qabristonning paydo bo'lish vaqtiga, dastlabki mikotsenozlarning mavjudligiga, ularning ekologik xususiyatlariga va boshqalarga bevosita bog'liq. Bundan tashqari, qabriston hududlari introduksiya qilingan o'simlik turlarining manbalari bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, tabiiy floraning antropogen o'zgarishlarga duchor bo'lganlar turlari ko'pincha saqlanib qoladi. Bundan kelib chiqadiki, o'simliklarning oldingi holatini aniqlash uchun qabriston hududlaridagi o'simliklarni inventarizatsiya qilish bo'yicha floristik tadqiqotlar o'tkazish kerak.

Chirchiq shahar “Obodonlashtirish” boshqarmasining “Marosimiy hizmat ko‘rsatish” bo‘limi balansidagi qabristonlar bo‘yicha ma’lumot

T/r	Qabriston tartib raqami va manzili	Mahalla hududi	Ajratilgan yer maydoni (ga)	Faoliyati	Ishga tushirilgan yili
1	1-sonli xristian qabristoni A.Temur ko‘chasi	“Gulzor” MFY	14,377	Yopilgan	1960
2	4-sonli musulmon qabristoni A.Qodiriy ko‘chasi	“Gulzor” MFY	5,3104	Yopilgan	1970
3	8-sonli musulmon qabristoni X.Maxsudov	“X.Maxsudov” MFY	1,4744	Ochiq	1992
4	10-sonli musulmon qabristoni	“X/Maxsudov” MFY	0,3179	Yopilgan	1955
5	11-sonli xristian qabristoni Chetina ko‘chasi	“Iqbol” MFY	0,8127	Yopilgan	1937
6	13-sonli musulmon qabristoni	“Gulzor” MFY	1,3003	Ochiq	2001
7	20-sonli musulmon qabristoni sportchilar ko‘chasi	“Mirzo Ulug‘bek” MFY	0.7756	Yopilgan	1948
8	7-sonli musulmon qabristoni Elibay ko‘chasi	“Muruvvat” MFY	1,1785	Yopilgan	1956
9	12-sonli musulmon qabristoni Elibay ko‘chasi	“Muruvvat” MFY	2,4068	Ochiq	2000
10	15-sonli musulmon qabristoni Niyazbek ko‘chasi	“Mir Alisher” MFY	0,991	Ochiq	1965
11	16-sonli yangi qurilayotgan Musulmon qabristoni Chinor ko‘chasi	“Chinor” MFY	20,0008	Ishga tushmagan	2012
12	3-sonli xristian qabristoni Temiryo‘lchilar ko‘chasi	“Birlik” MFY	1,7895	Yopilgan	1947
13	9-sonli yaxudiylar qabristoni Temiryo‘lchilar	“Birlik” MFY	0,5477	Yopilgan	1968

	ko‘chasi				
14	17-sonli musulmon qabristoni Gagarin ko‘chasi	“Navro‘z” MFY	0,3976	Yopilgan	1954
15	19-sonli musulmon qabristoni Ozodlik ko‘chasi	“Xayot guli” MFY	0,2966	Yopilgan	1943
16	2-sonli musulmon qabristoni 4-kichik Noxiya Naymanovul qo‘rg‘oni	“Xamza”MFY	6,174	Yopilgan	1969
17	5-sonli xristian qabristoni Vertolyot poligoni	Vertoyot poligoni	12,3149	Ochiq	1978
18	6-sonli musulmon qabristoni	“G‘alaba” MFY	4,0859	Ochiq	1948
19	14-sonli musulmon qabristoni Djalaer qo‘rg‘oni	“Ma’rifat” MFY	3,2832	Ochiq	2008
20	18-sonli musulmon qabristoni ni Djalaer	“Ma’rifat” MFY	1,4098	Yopilgan	1948
21	21-sonli Do‘stlik qabristoni	“Abduraxmon Jomiy” MFY	2	Ochiq	1984

Dissertatsiya ishni obe'kti qilib Chirchiq shahridagi ikkita (2-sonli Musulmonlar qabristoni (1-rasm) va 21 sonli Do'stlik qabristoni tanlab olindi (2-ram). 1969 yilda 2-sonli Musulmon qabristoni 4-kichik Noxiya Naymanovul qo'rg'oni hududida ochilgan, uning umumiy maydoni 6,174 ga maydonni tashkil qiladi. Ushbu qabristonning hozirgi kunda faoliyati yopilgan. Tadqiqot obe'ktining ikkinchi hududi Abduraxmon Jomiy maxallasi Do'stlik qabristoni hisoblanadi. Mazkur qabriston 1984-yili tashkil topgan bo'lib, ushbu hudud 2 gektar maydonni egallaydi, hozirda qabriston ochiq ishlamoqda.



1-rasm. Chirchiq shahridagi 2-sonli Musulmonlar qabristoni



2-rasm. Chirchiq shahridagi 21-sonli Do'stlik qabristoni

Xulosa qilib aytganda, hozirga qadar tanlab olingan har ikkila qabriston hududida floristik tadqiqotlar olib borilmagan. Shu nuqtai nazardan, qabriston florasining o'ziga hos xususiyatlarini ochib berishda tanlab olingan qabristonlarning tur tarkibini aniqlash, zamonaviy konspektini tuzish, kamyob, yo'qolish xavfi ostida qolgan va endem turlar populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash, turlarning tarqalishini aks ettiruvchi (GAT) xaritasini yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sennikov A.N., Tojibaev K.Sh, Khassanov F.O., Beshko N.Yu. The Flora of Uzbekistan Project // Phytotaxa, 2016. –P. 107-118.
2. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Yu. Reassessment of diversity and analysis of distribution in Tulipa (Liliaceae) in Uzbekistan // Nordic Journal of Botany. Vol. 33 (2015). – P. 324-334.
3. Tojibaev K.Sh., Khassanov F.O, Natalya Yu. Beshko N.Yu., Tajetdinova D.M., Turginov O.T., Sennikov A.N., Chang K.S., Hwan S., Jang Ch., Diversity and distribution of the genus Scrophularia L. (Scrophulariaceae) in Uzbekistan, Journal of Asia-Pacific Biodiversity, 2020. №13. – P. 70-91.
4. Abramova L. M., Xaziaxmetov R. M., Xasanova G. R., Yunusbaev U. B., Mirkin B. M. Sinantropizatsiya stepey: metody otsenki i vozmozhnosti upravleniya protsessom // Voprosy stepovedeniya. 2000. T. 1. S. 62 – 70.
5. Azimova D.E. Molguzar tizmasi floras, 2018. (Microsoft Access, 2012).
6. Batoshov A.R. Flora ostanov yugo-vostochnogo Kyzylkuma. Dis. ...dokt biol nauk. - Tashkent, 2016. - 130 s.
7. Beshko N.Yu., Azimova D.E. Новые floristicheskie naxodki v Severo-Zapadnom Pamiro-Alae (Uzbekistan) // Turczaninowia. – Barnaul, 2013. – T. 16 №1. – S. 197-203.
8. Golovanov Ya. M., Abramova L. M. Zakonomernosti protsessa sinantropizatsii rastitelnogo pokrova gorodov yujnogo Preduralya (Respublika Bashkortostan) // Rastitelnost Rossii. 2016. № 28. S. 28 – 36.
9. Grigorevskaya A. Ya., Starodubseva Ye. A., Xlyzova N. Yu., Agafonov V. A. Adventivnaya flora Voronejskoy oblasti. Voronej : Izd-vo Voronej. un-ta, 2004. 320 s.
10. Mamin R. G. Urbanizatsiya i ohrana okrujayushchey sredy v Rossiyskoy Federatsii / R. G. Mamin. – Moskva: REFIA, 1995. - 388 s.
11. Sennikov A.N. Amaryllidaceae – Amarillisovye. Flora Uzbekistana. – Tashkent: – Navruz, 2016. T. 1. – xxviii + S. 1-173.

12. Sennikov A.N. Flora Uzbekistana. – Tashkent: – Manaviyat, 2019. T. 3. – 201 s.
13. Sennikov A.N. Flora Uzbekistana. – Tashkent: – Navruz, 2017. T. 2. – xii + S. 1-200.
14. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Yu., Kodirov U.X., Batoshov A.R., Mirzalieva D.U., Kadastr flori Uzbekistana: Samarkandskaya oblast. Izd. «FAN». Tashkent – 2018. – 222 s.
15. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Yu., Popov V.A. Botaniko-geograficheskogo rayonirovanie Uzbekistana // Botanicheskie jurnal. – Sankt-Peterburg: Nauka, 2016. – №10 (101). – S. 1105-1130.
16. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Yu., Shomurodov X.F. Kadastr flori Uzbekistana: Navoinskaya oblast. Izd. «FAN». Tashkent – 2019. – 216 s.
17. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Yu., Shomurodov X.F., Kodirov U.X., Turginov O.T., Sharipova V.K. Kadastr flori Uzbekistana: Kashkadarinskaya oblast. Izd. «FAN». Tashkent – 2018. – 256 s.
18. Tojibaev K.Sh., Beshko, N.Yu., Kodirov U.X. Akbarov. Endemichnye i redkie vidy flori i identifikatsiya klyuchevykh botanicheskix territoriy v zapadnoy chasti zeravshanskogo xrebtta // Guliston xabarnomasi, 2019. – B. 9-20.
19. Turginov O.T. Boysun botanik-geografik rayoni flori: Dis. ...kand biol nauk.– Toshkent, 2017. – 120 b.
20. Qodirov U.H. Urgut botanik-geografik rayoni flori: Dis. ...kand biol nauk.– Toshkent, 2021. – 120 b.